

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH HUZURIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**TO‘RAYEV SARDOR ABDIXAKIM O‘G‘LI**

**INTERNET TARMOG‘IDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN  
AYRIM TURDAGI JINOYATLARNING JINOYAT-HUQUQIY VA  
KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi  
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**To‘rayev Sardor Abdixakim o‘g‘li**

Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan ayrim turdagi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari .....3

**Тураев Сардор Абдихаким угли**

Уголовно-правовые и криминологические аспекты отдельных видов преступлений, совершаемых с использованием сети Интернет .....28

**Turaev Sardor Abdikhakim ugli**

Criminal-legal and criminological aspects of certain types of crimes committed using the Internet .....54

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH HUZURIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**TO‘RAYEV SARDOR ABDIXAKIM O‘G‘LI**

**INTERNET TARMOG‘IDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN  
AYRIM TURDAGI JINOYATLARNING JINOYAT-HUQUQIY VA  
KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi  
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1481 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” ta’lim Axborot ta’lim tarmog‘ida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ochilov Hasan Rashidovich**

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Rustam Kabulov**

yuridik fanlar doktori, professor

**Farxod Toxirov**

yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengash huzuridagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 24-aprel soat 16-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel./faks: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№-1388-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 9-apreldagi 47-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Otajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**M.K.O‘razaliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**N.S.Salayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda ilmiy-fantastik tasavvurlarni real voqelikka aylantirayotgan to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida Internetdan foydalanishning ma'naviy va axloqiy jihatlariga alohida e'tibor berilmoqda. Internet jahon axborot tarmog'idan jinoiy maqsadlarda foydalanish oqibatida kiberjinoyatchilik tobora xavfli tus olib, kuniga 200 mingdan ortiq sodir etilayotganligi, natijada jismoniy va yuridik shaxslarga 500 mlrd.ga yaqin mulkiy zarar yetkazilayotganligi, 2024-yilda Juniper Research tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, 2025-yilga kelib kompyuter jinoyatchiligidan yetkaziladigan zarar 2,1 trln doll.dan ortib ketishi mumkinligi xalqaro miqyosda ushbu jinoyatlarga qarshi kurashishning dolzarbligidan dalolat beradi. Sun'iy intellekt (SI) taraqqiyoti ham huquqiy tizimlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini<sup>1</sup> tug'dirmoqda. Bundan tashqari *Darknet*da axloqqa va shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligiga qarshi jinoyatlarning, xususan bolalar pornografiyasi (*Child Sexual Abuse Materials*) bilan bog'liq jinoyatchilik dinamikasining ortib borishi<sup>2</sup>, ijtimoiy munosabatlarning virtual muhitga ko'chganligi Internetdan foydalanish orqali sodir etiladigan jinoyatlar, xususan hayotga, axloqqa va jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar dinamikasi ortishi, ular ijtimoiy xavflilik darajasining o'sishi bu sohada tadqiqotlar o'tkazish zaruratini yanada orttirmoqda.

Jahonda "Global axborotlashtirish va kompyuterlashtirish asri"da insoniyat hayotida olamshumul ixtirolar bilan bir qatorda, axborot xavfsizligiga tahdid solayotgan hayotga, axloqqa hamda jamoat xavfsizligiga jinoiy tajovuz qilishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini aniqlash, ular uchun jinoiy javobgarlik belgilash, ushbu jinoyatlar holati va dinamikasini tahlil qilish, ushbu turdagi jinoyatchilikning sabab va sharoitlari, jinoyatchi shaxsini o'rganish va ularni oldini olish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi<sup>3</sup> kafolatlandi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishining muhim vazifasi sifatida belgilangan<sup>4</sup>. Biroq, konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida

---

<sup>1</sup> Čerka, Paulius, Jurgita Grigienė, Girkbikyte Sirbikyte. 2015. "Liability for Damages Caused by Artificial Intelligence". *Computer Law and Security Review* 31: 376–389.

<sup>2</sup> <https://link.springer.com/article/10.1007/s11757-023-00790-8>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/6445145>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2021-y., 6-son, 70-modda.

zarur bo'lgan doirada axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquq cheklanishi mumkin. Aytish mumkinki, bu kabi cheklovlar Internet tarmog'idan foydalanib jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazilgan hollarda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida", 2022-yil 15-apreldagi O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-son "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va Qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar va ularni oldini olish masalasi respublikamizda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur masalaning faqatgina ayrim jihatlari Q.R. Abdurasulova, R. Kabulov, U.M. Mirzayev, A.K. Rasulev, M.X. Rustamboyev, A.A. Otajonov, N.S. Salayev, M. Sobirov, G'.O. Ermatov, X.Ochilov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, mazkur masala bo'yicha D.S. Azarov, V.A.Andreev, Yu.M.Baturin, B.V.Vexov, P.B.Gudkov, A.M.Jodzinskiy, V.S.Karpov, V.V.Krilov, A.L.Osipenko, P.N.Pak, Ye.I.Panfilova, A.N.Popov, S.L.Sibiryakov, A.V.Sorokin, V.P.Xorst, Robert Devis, Skott Xatkinson, Devid Vol, Eduard Vayz, J.Karter, Odri Peri kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishining mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan hamda "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari", "Globallashuv sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirish muammolari", "Sud-huquq sohasini isloh qilish va jinoyat qonunini liberallashtirish sharoitida jazo tizimini

isloh qilish muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni tushunchasi, ahamiyati, kriminologik tavsifini ochib berish va internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish bilan bog‘liq muammolarni tahlil etish, o‘rganilgan manba va tadqiqot materiallari asosida ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqotning vazifalari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar tushunchasi, ijtimoiy xavfliligi, javobgarlik belgilanishi zaruratini aniqlash;

- internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy tavsifi yoritish va tasnifini bayon qilish;

- internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilari tahlilini amalga oshirish;

- internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash;

- internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar bo‘yicha jinoyatchi shaxsi muammolarini o‘rganish hamda bu turdagi jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik va uning oldini olish masalalari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqot predmetini** Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilaydigan hamda ularning oldini olishni nazarda tutuvchi qonunchilik normalari, bu turdagi jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda tadqiqotga doir amaliyot materiallari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, statistik usullaridan, shuningdek sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, jinoyat ishlari materiallarini o‘rganish va boshqa metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik differentsiatsiya qilinishi lozimligi asoslangan;

- shaxsning sha’nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni oshkor qilganlik, bunday axborotni uning roziligisiz Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatganlik yoki tarqatish bilan qo‘rqitganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash lozimligi isbotlangan;

- shaxsning xohishiga zid ravishda Internet tarmog‘i orqali unga nisbatan shahvoniy tushdagi elektron xat-xabarlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda shahvoniy tushdagi xabarlar yuborish shahvoniy shilqimlik tarkibini tashkil etishi lozimligi asoslangan;

tazyiqni targ'ib qiluvchi mahsulotni Internet jahon axborot tarmog'ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish uchun jinoiy javobgarlik belgilash lozimligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

shaxsiy hayot daxlsizligini buzish (JK 141<sup>1</sup>-m.), milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish (JK 156-m.), konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish (JK 159-m.), g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undaganlik (JK 216<sup>1</sup>-m.) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normalarga "telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa" mazmunidagi jazoni og'irlashtiruvchi band bilan to'ldirish zarurligi asoslangan;

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilayotgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda egallash, shuningdek o'tkazish jinoyatlari uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish zarurati isbotlangan;

qilmishni JK 244<sup>1</sup>-moddasidagi "har qanday shaklda tarqatish" sifatida baholanganida uni "g" band (Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etish) bilan kvalifikatsiya qilishda normalar raqobati yuzaga keltirishi sababdan ushbu normaning ikkinchi qismida "har qanday shaklda tarqatish" usulining chiqarilishi maqsadga muvofiqligi asoslangan;

JK 244<sup>1</sup>-moddasi jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi maxsus norma bo'lganligi sababli ham ushbu materiallarni O'zbekiston Respublikasi hududiga *olib kirganlik* uchun 244<sup>1</sup>-moddada javobgarlik belgilanishi mantiqan to'g'riligi asoslangan;

JK 130-moddasining birinchi qismi dispozitsiyasini "yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish" degan so'zlardan oldin "saqlash" degan so'z bilan to'ldirish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi taklifni qo'llab-quvvatlab, bunday "saqlash" nafaqat elektron ma'lumot tashuvchi vositalarda balki, cloud texnologiyalarida saqlangan hollarda ham qilmishni xuddi shu belgi bilan kvalifikatsiya qilish lozim, degan fikrni ilgari surish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

telegram ijtimoiy tarmog'i orqali shaxsiy xabar shaklida bir profildan boshqasiga aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan materiallarni yuborish qilmishni Internet tarmog'i orqali sodir etilgan degan og'irlashtiruvchi belgi bilan kvalifikatsiya qilishga sabab bo'lmasligi asoslangan;

transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida Oliy sud Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli "Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog'liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida ayni shu jihatlar yuzasidan ham tushuntirish berilishi maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, 300 dan ortiq sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda



professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari, 200 dan ortiq sud hukmlari, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatidan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilindi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi va amaliyotga joriy qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalardan tadqiqot ishlarini olib borishda, "Jinoyat huquqi. Umumiy qism", "Jinoyat huquqi. Maxsus qism", "Kriminologiya" kabi fanlarni o'qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda, qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar hamda qonunni qo'llash amaliyotini yaxshilashga doir tavsiyalardan qonun ijodkorligi jarayonida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik va uning oldini olishni takomillashtirishga qaratilgan qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligida, ishlab chiqilgan takliflar tergov va sud amaliyotida ushbu jinoyatlarga oid qilmishlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va amaliyotdagi Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolarining yechimini topishga xizmat qilishida, sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining qonunni qo'llash amaliyotida, yuridik oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida foydalanilishi mumkinligida ifodalanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik differentsiatsiya qilinishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining JK 168-moddasini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 23-maydagi 9/08-86-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik differentsiatsiya qilinishiga, bu turdagi qilmishlar uchun javobgarlik muqarrarlari ta'minlanishiga xizmat qilgan;

shaxsning sha'nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik, bunday axborotni uning roziligisiz Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatganlik yoki tarqatish bilan qo'rqitganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining JKni 141<sup>3</sup>-modda bilan to'ldirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 23-maydagi 9/08-86-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi shaxsning sha'nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik, bunday axborotni uning roziligisiz Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatganlik yoki tarqatish bilan qo'rqitganlik uchun jinoiy javobgarlik muqarrarlari ta'minlanishiga xizmat qilgan;

shaxsning xohishiga zid ravishda Internet tarmog'i orqali unga nisbatan shahvoniy tushdagi elektron xat-xabarlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda shahvoniy tushdagi xabarlar yuborish shahvoniy shilqimlik tarkibini tashkil etishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi natijasida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ma'muriy huquqbuzarlik hamda jinoyat ishlari bo'yicha ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorining o'n uchinchi xatboshisini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 28-maydagi 08/461-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi shaxsning xohishiga zid ravishda Internet tarmog'i orqali unga nisbatan shahvoniy tushdagi elektron xat-xabarlar, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda shahvoniy tushdagi xabarlar yuborish shahvoniy shilqimlik uchun javobgarlikka tortilishiga oid tushuntirish berilishiga xizmat qilgan;

tazyiqni targ'ib qiluvchi mahsulotni Internet jahon axborot tarmog'ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish uchun jinoiy javobgarlik belgilash lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining JKni 130<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazining 2024-yil 25-iyundagi 16/K1-7743-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi nafaqat, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi, balki tazyiqni targ'ib qiluvchi mahsulotni Internet jahon axborot tarmog'ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatganlik uchun ham javobgarlik muqarrarlari ta'minlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot davomida olingan ilmiy xulosalar, takliflar va ilmiy-amaliy tavsiyalar jami 5 ta, 2 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy konferensiya to'plamlarida e'lon qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy maqola, shu jumladan, ilmiy jurnallarda 9 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **kirishi** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va

amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan ayrim turdagi jinoyatlarning yuridik tavsifi”** nomli birinchi bobida Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar tushunchasi, ijtimoiy xavfliligi, javobgarlik belgilanishi zarurati hamda Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy tavsifi va tasnifi hamda ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi jinoyat-huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

Ushbu bobda dissertant Internet tarmog‘ining takomillashtirilishi, jamiyat hayotida turli ijtimoiy tarmoqlar tobora ommalashib borayotgani, o‘z navbatida, uning imkoniyatlarni kengaytirib, u bilan bog‘liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning ham ijtimoiy xavfliligini oshirib borayotganini qayd etgan. Jahon axborot tarmog‘i deb ataluvchi Internet bugungi voqelikda nafaqat axborot izlash va uni olish, balki ijtimoiy muloqotning faol maydoniga aylangan. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi ijtimoiy hayotda Internetning ahamiyatini yanada oshirdi, bir vaqtning o‘zida ikkita makonda – oflayn va onlayn muhitda bo‘lish imkoni paydo bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida virtual muhitda shaxsiy chegaralar, huquqlar va qonuniy manfaatlar himoyasini kuchaytirishni taqozo qilmoqda.

Dissertantning ta’kidlashicha BMTning Inson huquqlari kengashi tomonidan 2018-yil 5-iyulda qabul qilingan rezolyutsiyada Kengash shaxsning oflaynda bo‘lgan huquqlari onlaynda ham himoya qilinishi kerakligini mustahkamladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra 2016-yil 12,1 million ortiq internetdan foydalanuvchilar bo‘lgan bo‘lsa, hozirda bu raqam 31 million yetgan. O‘zbekiston hududining Internet bilan qamrovi darajasi 2016-yil 28 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bugun ushbu ko‘rsatkich 98 foizga yetdi. 2016-yildan beri internet-kanallarining umumiy o‘tkazish qobiliyati (tezligi) deyarli 50 barobarga – 64,2 dan 3 200 Gbit/s gacha oshirilgan. O‘zbekistonda raqamlashtirishni rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda: 2020-yil “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilinib, maxsus Davlat dasturi ham qabul qilingan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi amalga oshirilmoqda. Bu kabi chora-tadbirlar virtual makonda sodir etiladigan huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish, ularning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etish dolzarbligini ham ko‘rsatadi.

BMTning jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov muammolariga bag‘ishlangan 2005-yilda bo‘lib o‘tgan XI Kongressida Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu kongressda kiberjinoyatchilikning o‘ziga xos xususiyatlari va unga qarshi kurashda kompleks yondashuv ishlab chiqish zarurati yuzasidan Bangkok deklaratsiyasini qabul qildi.

Dissertantning qayd etishicha Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlardan o‘rtacha atigi bir foizi fosh etiladi. Keltirilgan ma’lumotlar Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning ham miqdor, ham sifat jihatidan shiddat bilan o‘sayotganligini hamda shunga monand ravishda ushbu jinoyatlarga qarshi kurashda qonunchilik bazasini muqim takomillashtirib borish zaruratini ko‘rsatadi.

Internet tarmog'i jinoyatchiligini jinoyatchilikning bir ko'rinishi sifatida tadqiq etish borasida tadqiqotchilar (Yu.M.Baturin, A.N.Karaxanyan, N.A.Selivanov va boshqalar)ning qarashlarini o'rganib, Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar deganda, sodir etish obyekti yoxud vositasi Internet tarmog'i bo'lgan qonunga xilof bo'lgan xatti-harakatlarni tushunish hamda Internet tarmog'i jinoyatchiligini alohida guruhga ajratish maqsadga muvofiq, degan fikrga kelgan.

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslarning doirasi nisbatan keng. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, jinoyat subyektlari jamiyatning turli qatlam vakillaridan, 16 dan 60 yoshgacha, tayyorgarlik darajasi esa – tajribasizlardan tortib, mutaxassislargacha yoki kompyuter texnikasi sohasida minimal bilimga ega bo'lgan barcha yoshdagi shaxslar bo'lishi mumkin.

Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Lekin, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi.

Internet tarmog'i orqali sodir etiladigan jinoyatlarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash o'rinlidir:

jinoyatning istalgan hududdan amalga oshirish mumkinligi, jinoyatchi bajargan ishlarni qaysi hududdan va qaysi texnika vositasi orqali amalga oshirilganini aniqlash qiyin bo'ladi;

ular, odatda, kech aniqlanadi, shu bois unga qarshi kurash samaradorligi pasayadi;

jinoyatlarning latentligi yuqori.

So'nggi yillarda jinoiy guruhlar o'z jinoiy faoliyatini amalga oshirishda Internetdan foydalanayotgani ushbu jinoyatchilikning ko'lami oshishiga olib kelmoqda. Jumladan, Yu.P.Xoxlovning fikriga ko'ra, hozirgi kunda dunyoda 5 mingga yaqin ekstremizmni targ'ib qiluvchi Internet-saytlar faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu saytlarning tashkilotchilari o'z maqsadlariga erishish uchun VKontakte, Facebook, Twitter, Odnoklassniki kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi va ushbu saytlar orqali o'z g'oyalarini faol tarzda targ'ib qilishadi. Internetdan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar jamoat xavfsizligiga tahdid sola boshlagani sababli O'zbekiston Respublikasining JK 244<sup>1</sup>-moddasi 3-qismida qilmishni Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etganlik og'irlashtiruvchi band sifatida belgilangan.

Mazkur tadqiqot doirasida Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisi, aniqrog'i, jazoni og'irlashtiruvchi belgi sifatida milliy jinoyat qonunida nazarda tutilgan ayrim jinoyat tarkiblari tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinib, ular quyidagicha tasniflangan: Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan: *hayotga qarshi jinoyatlar; axloqqa qarshi jinoyatlar; shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar; jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.*

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurashda eng murakkab muammolardan biri ushbu turdagi jinoyatlarning virtual muhitda va istalgan hududdan sodir etilishi imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi. Kiberjinoyatchilar, odatda, milliy chegaralarni chetlab o'tgan holda, jahon tarmog'iga ulangan har qanday kompyuterga, elektron dasturga hujum qiladi. Yoki go'yo boshqa manbalar yoxud bunday xatti-harakatlar jinoyat hisoblanmaydigan mamlakatdan turib shunday hujumni amalga oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, qator huquqiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bunday jinoyat turi globallashtirib borayotgani e'tiborga olinadigan bo'lsa, bugun hech qaysi mamlakat ushbu xavfga nisbatan mustaqil ravishda bir o'zi qarshilik ko'rsata olmaydi. Bunday sharoitda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, kiberjinoyatchilikka qarshi birgalikda harakat qilish va uni tekshirish borasida tegishli organlar faoliyatini tartibga solish hamda o'zaro hamkorlikning xalqaro huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish yagona yo'ldir. Shu sababdan, Yevropa Ittifoqida ham kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va ularning asosiy maqsadi jinoyat huquqi hamda jinoyat protsessual qonunchiligiga o'zgartishlar kiritish borasidagi davlatlar kelishuvini ishlab chiqish edi.

Unga ko'ra *"kompyuterdan foydalanish jinoyati"* tushunchasi muomalaga kiritildi. Keyinchalik Yevropa Ittifoqi №R(95)13 tavsiyasidagi *"kompyuterdan foydalanish"* terminini *"axborot texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq jinoyatlar"* terminiga o'zgartirdi. Tavsiyalarda aytilishicha, axborot texnologiyalar bilan bog'liq jinoyatlar kompyuter tizimlari yordamida sodir etilishi mumkin. Tizim jinoyat obyekti yoki muhiti bo'lishi mumkin.

2001-yil 23-noyabrda *"Kiberjinoyat to'g'risida"*gi konvensiyaning imzolanishi Yevropada kiberjinoyatlarga qarshi kurashning muhim bosqichi bo'ldi. Konvensiya mustaqil va rasmiy jinoyat qonunlariga taqsimlangan. Konvensiya 43 ta Yevropa Kengashi a'zolaridan 26 tasi tomonidan imzolangan. Shular qatorida Kanada, Yaponiya, Janubiy Afrika Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari ham mavjud. Keyinchalik, yana 5 ta davlat tomonidan ushbu konvensiya ratifikatsiya qilingan. 2004-yil 8-yanvargacha yana 4 ta davlat konvensiyani tasdiqladi. Aytish joizki, Konvensiya to'g'ridan-to'g'ri amal qilmaydi, ammo u davlatlar tomonidan milliy qonunchilikka implementatsiya qilinadi.

Davlat ichki jinoyat qonunchiligiga majburiy kirishga tavsiya qilingan jinoyatlar ro'yxatiga kompyuter firibgarligi, kompyuter axborotlarini soxtalashtirish kabi jinoyatlar qatorida kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda foydalanish jinoyati ham kiritilgan.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda a'zo davlatlar, kuzatuvchilar va hamkorlar harakatlarini birlashtirish uchun o'ziga xos platforma bo'lgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning 2013-yil 13-sentabrda Bishkekda qabul qilingan deklaratsiyasida Internet tarmog'idan foydalangan holda terrorizm, ekstremizm va separatizm g'oyalarini targ'ib qilishning oldini olish, axborot makonida mamlakatlarning o'zini mas'uliyatli tutishi bo'yicha universal qoidalar, prinsip hamda normalarni ishlab chiqish bo'yicha normalar mustahkamlandi. Bundan tashqari, ushbu tashkilot doirasida 2015-yilda 27-28-avgust kunlari Ostona

shahrida o'tkazilgan yig'ilishda ham a'zo davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarida o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilgan, shuningdek ShHTning 2025-yilgacha rivojlanish strategiyasida kiberxavfsizlik masalalari alohida qayd etilgan.

Ko'pchilik mamlakatlarda kompyuter jinoyatlariga qarshi kurashish masalalarining huquqiy poydevori yaratilgan bo'lishiga qaramay, hozirgi davrdagi axborot muhiti har bir mamlakatning bu qonunchilik tizimini qayta ko'rib chiqishini talab etmoqda. Hozirda jahonning 100 dan ortiq mamlakatlarida, jumladan Interpol a'zolarining 60 foizida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga oid qonunlarga ega emas.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarida tadqiq etilayotgan mavzu tahlili yuzasidan quyidagi xulosa va takliflar ilgari surilgan: bugungi kunda terrorizm sodir etish, unga jalb qilishning zamonaviy shakllaridan biri kiberterrorizm hisoblanadi. Mamlakatimizda bunday qilmishga qarshi kurash tizimini takomillashtirish maqsadida terrorizm harakatlarini Internet tarmog'idan foydalanib sodir etganlik uchun JKning 155-moddasida javobgarlik belgilash; xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, Internet tarmog'idan foydalanib giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash, shuningdek o'tkazish jinoyatlari uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish, xuddi shuningdek bu holatni JK 159, 162, 251, 251<sup>1</sup>, 252-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar nuqtai nazardan ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, dissertant tomonidan "Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyat" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ham ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **"Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan ayrim turdagi jinoyatlarning yuridik tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilari tahlili, shuningdek Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari kabi masalalar tahlili amalga oshirilgan.

Ushbu bobda dissertant Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning maxsus obyekti inson hayotini muhofaza qiluvchi, axloqiy qadriyatlar – jamiyatdagi normal yurish-turish qoidalarini, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligini hamda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar ekanligini qayd etgan. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning bevosita qo'shimcha obyekti sifatida fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy manfaatlari yoxud davlat yoki jamoat manfaatlari ko'riladi.

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar jinoyatchining faol harakati asosida sodir etiladi. Aksariyat hollarda bunday jinoyatlar bir necha shaxslar (uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma) tomonidan sodir etilsa, Internet tarmog'idan foydalanib bevosita jinoyatni sodir etuvchi shaxsdan tashqari ushbu jinoyat sodir etilishida ishtirok etgan barcha ishtirokchilar (tashkilotchi, yordamchi, dalolatchi), agar ularning harakati yagona qasd bilan qamrab olingan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Buni tadqiqotchi Internet tarmog'ida shaxsni

haqorat qilish maqsadida yozilgan posti (yoki izohi) uchun bildirilgan reaksiyalar (лайк, нравиться va boshq.) mualliflari misolida ko'rsatgan.

JK 103-moddasi 2-qismida belgilangan jinoyat jabrlanuvchi shaxs o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazilgan yoki o'zini o'zi o'ldirishiga suiqasd qilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Agar mazkur jinoyat Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilsa, jinoyatchida jabrlanuvchilar bilan bevosita ko'rishmasdan ularni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazishi va bu yo'l bilan sodir etilganda jabrlanuvchilar soni ko'pchilikni tashkil etishi mumkin. Lekin, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 20-sonli "O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida qilmishni Internet tarmog'i orqali sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi band bilan kvalifikatsiya qilishga oid tushuntirish berilmagan. Shu sababdan aybdorning mazkur harakatlarni Internet tarmog'i orqali amalga oshirishi qilmishni kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Xuddi shuningdek, mazkur qaror 7-bandining ikkinchi xatboshisida JK 103<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan ham JK 25-moddasini qo'llash talab etilmaydi, chunki mazkur jinoyat shaxs o'zini o'zi o'ldirishga undalgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib Plenum qarorida o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki o'zini o'zi o'ldirishga undashda ifodalanadigan qilmishlarni Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilganda kvalifikatsiya qilishga oid tushuntirish berilishi lozimligi qayd etilgan.

Dissertant Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan axloqqa qarshi jinoyatlarni tahlilida S.Niyozovanning JK 130-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasini "saqlash" degan so'z bilan to'ldirish maqsadga muvofiq, degan fikrini qo'llab-quvvatlab, bunday "saqlash" cloud texnologiyalarida saqlangan hollarda ham qilmishni xuddi shu belgi bilan kvalifikatsiya qilish lozim, degan fikrni ilgari surgan.

Qayd etish kerakki huquqshunos olimlar esa jinoyat qonunchiligida qilmishni sodir etishning "Internet tarmog'i orqali sodir etilishi"da ifodalangan usuli uchun javobgarlikning og'irlashtirilishi qilmishni sodir etishning oshkora bo'lishi, nisbatan ommaviyligi, kengroq auditoriyani qamrab olishi, nomuayyan shaxslar tomonidan ma'lumotlarni olish imkoni mavjudligi bilan izohlashadi. Ushbu olimlarning qarashlarini to'liq qo'llab-quvvatlagan holda aytishimiz mumkinki, "VKontakte", "Telegram" hamda "WhatsApp" kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali ikkita akkaunt o'rtasidagi yozishma oshkora, ommaviy bo'lmasligi, ushbu yozishmaga ulardan boshqa shaxslarga ruxsat yo'qligi, bu ma'lumotlar uni tarqatgan va qabul qilgan shaxs o'rtasida bo'lishiga ahamiyat qaratish lozim. Bu kabi holatlarda sodir etilgan qilmishning faqat bitta adresatga mo'ljallanganligi e'tibor molik.

Ayni jihat bo'yicha dissertant 2023-yil 10-noyabrdagi Jinoyat ishlari bo'yicha Uchtepa tuman sudining hukmiga ko'ra fuqaro U. sobiq turmush o'rtog'ini Telegram ijtimoiy tarmog'ida shaxsiy xabar orqali haqorat qilganligini, sud esa fuqaro U.ning xatti-harakatlarini qilmishning Telegram ijtimoiy tarmog'i orqali

sodir etilsa-da JK 140-moddasi ikkinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilmaganligi bilan o'z fikrini asoslantirgan.

Bugungi kunda Facebook, Instagram, Telegram va boshqa shu kabi ijtimoiy tarmoqlarda diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini, fuqarolar totuvligini buzish, tuhmatona, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni "Поделиться" qilish, "Класс" hamda "Нравиться" tugmalarini bosish bunday materiallarni tarqatish sifatida baholanadi. Biroq, nazariy adabiyotlarda va sud-tergov amaliyotida dizlayk ("не нравиться", "achinish", "yoqtirish" tugmalari va boshq.) e'tibordan chetda qolayotganligiga e'tibor qaratgan va bu holat qonunni qo'llash hamda uni sharhlashga salbiy ta'sir etayotganini qayd etgan.

Amaldagi jinoyat qonunining 130 va 130<sup>1</sup>-moddalari JK 244<sup>1</sup>-moddada nazarda tutilgan jinoyat bilan predmetiga ko'ra farq qiladi. Lekin, ularning ijtimoiy xavfliligi o'zaro yaqin. Shundan kelib chiqib, 244<sup>1</sup>-moddaning nomida mazkur materiallarni *olib kirish* va *reklama qilganlik* uchun ham javobgarlik belgilanganligini aks ettirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, JK 244<sup>1</sup>-moddasi jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi maxsus norma bo'lganligi sababli ham ushbu materiallarni O'zbekiston hududiga *olib kirganlik* uchun 244<sup>1</sup>-moddada javobgarlik belgilanishi mantiqan to'g'ri hisoblanadi.

Axloqqa qarshi ijtimoiy xavfli qilmishlar orasida Internet jahon axborot tarmog'ida pornografik mahsulotni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etiladigan qilmish (JK 130-modda) og'irlashtiruvchi holatlarda javobgarlikka sabab bo'ladi. Ushbu qilmish subyektiv tomoni tahlilida qayd etish kerakki, Internet jahon axborot tarmog'ida pornografik mahsulotni reklama qilish, namoyish etish, tarqatishning subyektiv sifatida mazkur jinoyatni sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs tushuniladi.

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar esa faqatgina to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Agar Internet foydalanuvchisi ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etsa, uning harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Boisi ushbu turdagi jinoyatlar qasddan sodir etilishi bois doim aniq maqsadni ko'zlaydi.

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning jinoyat subyektiv va belgilarga ko'ra javobgarlikni og'irlashtiruvchi quyidagi holatlari ham tasniflangan.

JK 244<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan materiallarni "har qanday shaklda tarqatish" mohiyatan Internet orqali ham tarqatilishini qamrab oladi. Dissertant qilmishni "har qanday shaklda tarqatish" sifatida baholanganida uni JK 244<sup>1</sup>-moddasi uchinchi qismi "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilishda normalar raqobati



yuzaga kelishi sababli mazkur belgining chiqarilishi maqsadga muvofiqligini asoslantirgan.

Internet tarmog'idan foydalanib cloude yoki i-cloud singari "bulut texnologiyalari" orqali istalgan axborotni zararsiz saqlash, kerak paytda ularni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, qayta ishlash, o'zgartirish, to'ldirish, ularni berish, tarqatish, uzatish oson amalga oshiriladi. Agar aybdorni yuqorida qayd etilgan materiallar tarqatish yoki namoyish etish maqsadida saqlaganlik uchun javobgarlikka tortishda mazkur materiallarni qaerda saqlanganligi qilmishni kvalifikatsiyasiga ta'sir qiladimi? Ya'ni, agar shu kabi materiallar "bulut"da saqlansa qilmish JK 244<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismi bilan javobgarlik keltirib chiqaradimi yoki JK 244<sup>1</sup>-moddasining uchinchi qismi "g" bandi (Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa) bilanmi? Dissertant mazkur holatda qilmish JK 244<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismi bilan javobgarlik keltirib chiqarishi kerak, negaki, javobgarlikka sazovor bo'lgan "saqlash"da ifodalanadigan qilmish ham bunday mazmundagi materiallarni saqlash sifatida baholanishi lozim, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqot jarayonida Internet tarmog'i orqali sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq quyidagi yo'nalishlarda tergov va sud amaliyotida muammolar mavjudligi aniqlangan:

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari bilan qonunga xilof muomala qilishda ifodalanadigan qilmishlarning Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilayotganligi, lekin amalda bu kabi qilmishlar qonun chiqaruvchi tomonidan differentsiatsiya qilinmaganligi mazkur turdagi qilmishlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash hamda qilmishga yarasha jazolash imkoniyatini yo'qqa chiqarmoqda;

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda hudud masalasi;

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda vaqt masalasi;

ijtimoiy tarmoqdagi turli messenjerlar orqali (Telegram, Instagram, Facebook va boshq.) bir shaxs ikkinchi bir shaxsga shaxsiy xabar tarzida ayrim materiallarning yuborilishi qilmishni "Internet tarmog'idan foydalanib sodir etish" tarzidagi og'irlashtiruvchi belgi bilan javobgarlikka sabab bo'lishi yoki bo'lmasligi;

Internet tarmog'ida boshqa shaxslar nomidan profil ochib jinoyat sodir etgan hollarda qilmishni kvalifikatsiya qilish masalasi va boshqalar.

So'nggi paytlarda giyohvandlik moddalarni zakladka orqali tarqatish, sotish uchun javobgarlik belgilashda qilmishni Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilganligi uchun og'irlashtiruvchi belgi kiritish masalasi tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilayotgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda egallash, shuningdek o'tkazish jinoyatlari uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi. Biroq, amaldagi jinoyat qonunchiligida Internet tarmog'idan foydalanib giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari bilan qonunga xilof muomala qilganlik uchun

javobgarlik differentsiatsiya qilinmagan. Biroq, tadqiqot davomida o'rganilgan xorijiy davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularda Internet tarmog'idan foydalanib yuqorida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etish og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi JK 228.1.-moddasining ikkinchi qismi "b" bandida buni ko'rish mumkin. Shu maqsadda JK 251-moddasi 2-qismining "e" bandini, 251<sup>1</sup>-moddasi 2-qismining "b" bandini, 273-moddasi 3-qismining "d" bandini hamda 274-moddasi 2-qismining "g" bandini "telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa" tarzidagi og'irlashtiruvchi belgi bilan to'ldirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelingan.

Dissertant qayd etishicha aybdor qilmishni yagona suhbatdosh emas, balki nisbatan kengroq auditoriya o'rtasida ommaviy ravishda, oshkora sodir etilayotganligi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, mamlakat hududiga ekstremistik materiallarni, ekstremistik tashkilotlarning atributlari va ramziy belgilarini olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etish, shuningdek ularni ommaviy axborot vositalarida yoxud telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish va namoyish etish taqiqlanadi. Shu o'rinda dissertant "Internet tarmog'idagi muayyan profil egasini yoki konkret bir shaxsni ekstremist sifatida e'lon qilish qanchalik maqsadga muvofiq?", degan savolni o'rtaga tashlaydi. Uning nazdida yuqorida keltirilgan ro'yxat bilan ko'rsatilgan profil egalariga tegishli har qanday materialni tarqatganlik yoki saqlaganlik uchun javobgarlik kelib chiqishi anglashiladi.

Ma'lumki, jinoyat-protsessual huquqida dalillarni baholashning prinsiplariga ko'ra hech qanday dalil oldindan belgilangan kuchga ega emas. Ya'ni, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibida tahdid soladigan, aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan materiallarni Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda tarqatilgan har bir holatda sodir etilgan qilmishdan kelib chiqib huquqiy baho berilishi lozim. Ya'ni, ekstremistik va terroristik deb topilgan shaxslarga tegishli, biroq ekstremistik yoki terroristik mazmunga ega bo'lmagan boshqa bir materialning tarqatilishi jinoyat qonunining 244<sup>1</sup>-moddasi uchinchi qismi bilan javobgarlikka tortilmasligi lozim.

Dissertant 2015 va 2018-yillarda sun'iy intellekt negizidagi avtopilot boshqaruvida sodir etilgan yo'l transport hodisalari, robot hamshiraning xatosi bemorning hayotdan ko'z yumishiga olib kelganligi kabi holatlar sun'iy intellekt sohasidagi huquqiy javobgarlik masalalarini ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltirayotganini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasiga birgina 2024-yilda xorijdan qiymati 224,8 mln AQSh dollariga teng bo'lgan 24095 dona elektromobil import qilinganligi bunday transport vositalari ishtirokida yuz beradigan yo'l transport hodisalari xavfini ham oshiradi. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan olimlar sun'iy intellekt orqali yarim avtomat yoki to'liq avtomatlashtirilgan boshqaruvi ostida yo'l-transport vositalari tomonidan sodir bo'lgan yo'l transport hodisalari oqibatida tan jarohati olgan, transport vositasi va yuk shikastlangan hollarda qonunchilikda belgilangan tartibda zararning o'rni qoplanishini yo'l harakati qatnashchilarining huquqi sifatida

belgilashni taklif etishgan. Bundan kelib chiqadiki, yo‘l transport hodisalari faqatgina yo‘lda harakatlanish bilan bog‘liq bo‘lmasdan, sun‘iy intellekt ishtirokidagi ishlab chiqarish jarayonlaridagi kamchilik (defekt) bilan ham bog‘liq. Shu jihatdan ham transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida ayni shu jihatlar yuzasidan ham tushuntirish berilishi lozimligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **“Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tavsifi”** deb nomlangan uchinchi bobida Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va unga imkon beruvchi shart-sharoitlar, bu turdagi jinoyatlar bo‘yicha jinoyatchi shaxsi muammolari masalalari yoritilgan.

Hozirgi dunyoda Internet tarmog‘idagi jinoyatchilikni tushunish, unga baho berish va unga qarshi kurashish muammolarining dolzarbligi barcha olimlar tomonidan alohida e‘tirof etilmoqda. Shuningdek Internetning bugungi kundagi yutuqlari keng jamoatchilikka emas, balki alohida manfaatlarga xizmat qilishi uchun ham uning boshqarilishi, ayni paytda uning ijobiy tomonlaridan foydalanish va salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun nima qilish kerakligi keng muhokama qilinmoqda.

Har qanday jinoyatning oldini olish mazkur jinoyat sabablarini va unga imkon bergan shart-sharoitlarni chuqur o‘rganishga asoslanadi. Ayni paytda, tadqiq etilayotgan jinoyatlarga ham taalluqli bo‘lgan ko‘pgina masalalar hali-hanuz o‘z yechimini topmagan.

Dissertant Yu.Ufimtsevning Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni shartli ravishda ikkiga: 1) iqtisodiy omillari va 2) kriminologik omillarga ajratish mumkinligi to‘g‘risidagi fikrni qo‘llab-quvvatlab, uni quyidagicha davom ettiradi – mazkur qilmishlarning barchasini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: 1) inson va texnikaning o‘zaro aloqasi bilan bog‘liq qilmishlar (masalan, dasturiy va apparat vositalari yordamida sodir etiladigan o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar); 2) texnika vositalari yordamida tashkil etilgan insonning inson (odamlar guruhi) bilan o‘zaro aloqasi bilan bog‘liq qilmishlar.

Tadqiq etilayotgan jinoyatlarning kriminologik tavsifiga to‘xtalib, dissertant ayni vaqtda Internet tarmog‘ida jinoyatlar sodir etish ko‘p kuch-g‘ayrat va sarf-xarajatlar talab etmaydi – kompyuter, dasturiy ta’minot vositalariga ega bo‘lish va axborot tarmog‘iga ulanishning o‘zi kifoya qiladi, deb tushuntiradi.

Ushbu tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoq Internet tarmog‘i axborot maydonining ijtimoiy o‘zaro aloqani tashkil etish mumkin bo‘lgan bir qismi (veb-saytlar, platformalar, onlayn-servislar yig‘indisi) sifatida tushuniladi. Bunday tushunish shunga imkoniyat yaratadiki, “an’anaviy” ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda boshqa servislar ham tadqiqot obyektlariga aylanadi. Mazkur yondashuv ancha keng bo‘lib, uni bir qator tadqiqotchilar, shu jumladan chet ellik olimlar ilgari suradilar.

Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligi ko‘p jihatdan ushbu jinoiy tajovuz kriminologik tavsifini to‘g‘ri

tushunishga, uning sabab va shart-sharoitlarini hamda oldini olish choralarini o'rganishga bog'liq. O'rganish davomida tadqiqotchi Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatning sabablari – bu ijtimoiy-psixologik hodisalar bo'lib, o'zining qonuniy oqibati sifatida bevosita ushbu jinoiy hodisani keltirib chiqaradilar, degan xulosaga kelgan. Ushbu qilmishlar, shuningdek quyidagi sabablar bilan ham sodir etiladi: jumladan, shaxsiy yoki moliyaviy foyda; raqobatchini obro'sizlantirish; qasos; qiziqish; vandallik; tasodif; o'zini ko'rsatish; ma'lum bir guruhda o'ziga nisbatan hurmat qozonishga intilish.

Ushbu jinoyatni sodir etuvchilarning yoshi masalasida shuni qayd etish mumkinki, mazkur ko'rsatkich 15-45 yosh oralig'ida bo'lib, 33 foiz jinoyatchilar yoshi 20 dan oshmagan, 54 foizi 20-40 yosh atrofida hamda 13 foizi 40 yoshdan oshgan.

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyat shart-sharoitlari ham o'ziga xos muhim xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Avvalambor, ushbu jinoyatning kasbiy faoliyat doirasida sodir etilishini inobatga olish lozim. Jinoyatchilar qoida tariqasida nafaqat EHM boshqaruvi sohasida maxsus malaka, ko'nikma va qurilmalarga, balki axborot va axborot tizimlarini qayta ishlash, shuningdek, moliya, bank va shu kabi axborot texnologiyalari sohasida maxsus bilimlarga ham ega bo'ladilar.

Olimlar qayd etishicha, mazkur sohada statistik ko'rsatkichlarni tadqiq etish imkoniyatlari umuman olganda o'ta cheklangan va bu hol ishonchli ma'lumotlar olishning mushkulligi va texnologiyalarning rivojlanish jarayonidan ularning ortda qolayotgani bilan izohlanadi. Ayni vaqtda o'rganilayotgan ko'rsatkichlar barqaror tus oladigan turg'un bosqichni kutish befoyda, demak, tegishli hodisalar ularning harakati nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi lozim.

Ijtimoiy tarmoqlar yordamida sodir etiladigan tovlamachilik aksariyat hollarda jabrlanuvchini sharmanda qiladigan ma'lumotlarni tarqatish haqidagi tahdidlar bilan bog'liq. Ayrim hollarda bunday harakatlar kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda foydalanish, yozishmalar sirini buzish bilan birga amalga oshiriladi va qo'shimcha ravishda jinoyat qonunining tegishli moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Internet tarmog'ida tovlamachilik bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi natijasida virtual tovlamachilik predmetini aniqlash, uning usullari, zararining realligi singari va boshqa muammolar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tadqiqot Internet ijtimoiy tarmoqlaridagi jinoyatchilikning haqiqiy holati va tuzilishini aks ettiradi, deb aytish mushkul. Amalda huquqni muhofaza qilish organlarining mazkur jinoyatlarni aniqlash, ochish va tergov qilish borasidagi faoliyatiga tavsif berilgan. Ammo shu natijalar ham jinoyatchilik tendentsiyalarini baholash, profilaktika, shu jumladan viktimologik profilaktika faoliyatini tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bir qator hollarda ular qilmishlarni yuridik baholash bilan bog'liq bo'lgan, qo'shimcha ishlab chiqish va hal etishni talab qiladigan muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan anketa so'rovnomasida respondentlarning aksariyat qismi (65%) Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlariga faol qarshi kurash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar

tarkibida maxsus bo'lim va bo'linmalarni shakllantirish zamon talabi bo'layotganini qayd etishgan.

Maxsus kriminologik profilaktika, ko'pgina olimlarning fikricha, jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni bartaraf etish yoki neytrallashtirishga bevosita qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi: *Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatning oldini olishning umumijtimoiy choralari; Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatning oldini olishning maxsus choralari.*

Bundan tashqari, Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish amaldagi tizimida jiddiy bo'shliq mavjud – voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsini o'rganishga lozim darajada e'tibor berilmaydi. Internet global kompyuter tarmog'i paydo bo'lishi bilan voyaga yetmagan huquqbuzarlar keng imkoniyatlarni qo'lga kiritdilar, shu sababli o'smirlar o'rtasida g'ayriqonuniy faoliyatning oldini olishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Dissertant mazkur bobda Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur hodisaga qarshi kurashish tizimini hosil qiladigan jinoyatlarning maxsus oldini olish choralarining uch asosiy guruhini farqlash mumkinligini qayd etgan: a) huquqiy choralari; b) tashkiliy-boshqaruv choralari; v) texnik choralari.

Dissertantning fikricha, xuddi shunday majburiyatlar va ta'sir ko'rsatish choralari maxsus viktimologik profilaktika obyekti hisoblangan Internet tarmog'idagi jinoyatlar jabrlanuvchilariga nisbatan ham to'la tatbiq etilishi lozim.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, Internet tarmog'idagi jinoyatlar bilan bog'liq vaziyat aksariyat hollarda bo'lg'usi jabrlanuvchi va jinoyatchining o'zaro muloqoti vaziyatidan kelib chiqadi. Shu tufayli ham jinoyatchi Internet tarmog'idagi jinoyat sodir etishga turtki berishi mumkin bo'lgan harakatlardan o'zini tiyish har doim barcha tavsiyalarning asosiy elementi hisoblanadi. Ushbu turdagi ayrim jinoyatlarning xususiyatidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xulq-atvor imperativi maishiy negizda ziddiyatlarning rivojlanishiga tatbiqan ayniqsa muhimdir.

Hozirgi ijtimoiy hayot sharoitlarida shaxsiy xavfsizlik va o'zini o'zi himoya qilish uchun optimal choralarni tanlash muammosi ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik mexanizmlarini bilish, xavfli vaziyatlar noqulay tarzda rivojlanishi va zararli oqibatlar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'z nuqtai nazarlari va harakatlarini puxta anglab yetish juda muhimdir.

Ayni paytda sun'iy intellekt texnologiyalari, biometrik identifikatsiya, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, axborotni bulutli saqlash, masofaviy bank xizmatlarini joriy etish orqali hayotning deyarli barcha jabhalarini raqamlashtirish jarayoni faol davom etmoqda.

Kiberxavfsizlik markazining ma'lumotiga ko'ra, "Uz" domen zonasi veb-saytlariga nisbatan sodir etilgan kiberxavfsizlik insidentlari monitoringi natijasida 444 ta holat qayd etilgan bo'lib, ulardan eng ko'pini ruqsatsiz kontentni yuklab olish – 341 tani va asosiy sahifaga ruqsatsiz o'zgartirishlar kiritish – 89 tani tashkil etgan. Tadqiqot davomida o'rganilgan jinoyat ishlarining tahlili ko'rsatishicha, aksariyat hollarda Internet tarmog'ida 14 yoshdan 25 yoshgacha bo'lganlar

o'rtasida jinoyatlar sodir etiladi – 45-50 % (bulardan 20 % – 14 yoshdan 18 yoshgacha, 57 % –19-25 yoshlar orasida bo'lgan shaxslar o'rtasida).

Internet tarmog'idan foydalanib jinoyat sodir etadigan jinoyatchi shaxsi – avvalo jinoyat subyektining shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga binoan jinoyat subyektini uni aynan subyekt deb topish uchun zarur ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozim. Bunday ko'rsatkichlar uchta: jismoniy shaxs (jahonning ba'zi bir mamlakatlarida yuridik shaxslarni ham jinoyat subyektini deb topish imkoniyati nazarda tutilganki, bunga qo'shilish qiyin), shaxsning muayyan yoshga to'lganligi (MDHning bir qancha mamlakatlari qonunchiligiga ko'ra 14, 16, 18 yosh, jahonning ba'zi bir mamlakatlari jinoyat kodekslariga binoan esa – bundan ham kichikroq yosh) va aqli rasolik.

Internet tarmog'idan foydalanib jinoyat sodir etadigan jinoyatchilarni ijtimoiy ahvoli va bajarayotgan ishiga ko'ra tavsiflanganda ular orasida hech qanday ish bilan shug'ullanmaydiganlarning hissasi ko'pdir.

Internet tarmog'idan foydalanib jinoyat sodir etadigan shaxsning kriminogen motivatsiyaga moyilligining chuqurligi va turg'unligi jihatidan shaxsiy tiplarga ajratilgan hamda bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish tizimida chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan.

## **XULOSA**

Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni tadqiq etish natijasi sifatida quyidagi xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar**

1. "Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyat" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi:

*Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyat* – raqamli texnologiyalar, global internet tarmog'i yoki u bilan bog'langan qurilmalardan foydalanish orqali sodir etiladigan va jinoyatchining niyati, harakat usuli yoki jinoyat oqibati to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita internet vositachiligiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy xavfli va g'ayriqonuniy qilmish (harakat yoki harakatsizlik).

2. Tadqiq etilayotgan Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning maxsus obyekti inson hayotini muhofaza qiluvchi, axloqiy qadriyatlar – jamiyatdagi normal yurish-turish qoidalarini, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligini hamda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

3. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning bevosita qo'shimcha obyekti sifatida fuqarolarning shaxsiy yoki mulkiy manfaatlarini yoxud davlat yoki jamoat manfaatlarini ko'riladi.

4. Tadqiq etilayotgan jinoyatlarning bevosita asosiy obyekti quyidagilardan iborat:

internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan hayotga qarshi jinoyatlar bo'yicha – shaxsning hayotini muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar;

internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan axloqqa qarshi jinoyatlar bo'yicha – jamiyatda axloq normalariga rioya etilishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar;

internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar bo'yicha – shaxsning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar;

internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bo'yicha – jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar.

5. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar jinoyatchining faol harakati asosida sodir etiladi. Aksariyat hollarda bunday jinoyatlar bir necha shaxslar (uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma) tomonidan sodir etilsa, Internet tarmog'idan foydalanib bevosita jinoyatni sodir etuvchi shaxsdan tashqari ushbu jinoyat sodir etilishida ishtirok etgan barcha ishtirokchilar (tashkilotchi, yordamchi, dalolatchi), agar ularning harakati yagona qasd bilan qamrab olingan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

6. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning jinoyat subyektiv belgilarga ko'ra javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari quyidagilar:

takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa;

uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa.

7. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning jinoyat obyektiv belgilarga ko'ra javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari quyidagilar:

ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa;

ommaviy tadbirlar jarayonida yoki favqulodda vaziyat holatida;

juda ko'p miqdorda zarar yetkazilgan yoki boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan holda.

8. Internet tarmog'idan foydalanib jinoyat sodir etuvchilarning yoshi masalasida shuni qayd etish mumkinki, mazkur ko'rsatkich 15-45 yosh oralig'ida bo'lib, 33% jinoyatchilar yoshi 20 dan oshmagan, 54% 20-40 yosh atrofida hamda 13% 40 yoshdan oshgan.

9. Ko'p hollarda internet tarmog'ida 14-25 yosh o'rtasida jinoyatlar sodir etiladi – 45-50% (bulardan 20% – 14-18 yosh, 57% – 19-25 yosh orasida bo'lgan shaxslar o'rtasida).

10. Internet tarmog'idan foydalanib jinoyat sodir etadigan jinoyatchi shaxs tipologiyasi:

a) tasodifiy jinoyatchilar – tasodifiy holatlar natijasida, o'zining avvalgi xulq-atvorining umumiy tavsifiga zid ravishda jinoyat sodir etganlar;

b) vaziyatga bog'liq jinoyatchilar – beqaror shaxsiy xususiyatlar va turmush sharoitlarining ta'sirida jinoyat sodir etganlar;

v) beqaror jinoyatchilar – jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalaridan chekingan, biroq shunga qaramasdan ularni qat'iy o'zlashtirib olmaganlar;

g) professional jinoyatchilar – jinoyat sodir etish orqali o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishga qat'iy intiladiganlar.

## **II. Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar:**

11. Amaldagi Jinoyat kodeksida "Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib" atamasi 4 marta, "Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib" atamasi 3 marta qo'llanilgan. Amaldagi 16 ta qonunda va Jinoyat kodeksidan tashqari 4 ta kodeksda "Internet jahon axborot tarmog'i" atamasi qo'llanilgani inobatga olinsa, Jinoyat kodeksidagi ushbu atamani birxillashtirish maqsadida "Internet jahon axborot tarmog'i" atamasi qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

12. JK 56-moddasini quyidagi mazmundagi "i<sup>1</sup>" band bilan to'ldirish taklif etilgan:

### **i<sup>1</sup>) Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda;**

13. Jinoyat kodeksidagi quyidagi moddalar, jumladan shaxsiy hayot daxlsizligini buzish (141<sup>1</sup>-m.), milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish (156-m.), O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (159-m.), g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undaganlik (216<sup>1</sup>-m.) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normalarga "telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa" mazmunidagi jazoni og'irlashtiruvchi band bilan to'ldirish.

14. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etilayotgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda egallash, shuningdek o'tkazish jinoyatlari uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi. Shu maqsadda quyidagi normalar: JK 251-moddasi 2-qismining "e" bandini; JK 251<sup>1</sup>-moddasi 2-qismining "b" bandini; JK 273-moddasi 3-qismining "d" bandini; 274-moddasi 2-qismining "g" bandini "telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan bo'lsa," tarzidagi og'irlashtiruvchi belgi bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq.

15. Qilmishni JK 244<sup>1</sup>-moddasidagi "har qanday shaklda tarqatish" sifatida baholanganida uni "g" band (Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etish) bilan kvalifikatsiya qilishda normalar raqobati yuzaga keladi. Shu sababdan tahlil etilayotgan normaning ikkinchi qismida "har qanday shaklda tarqatish" usulining chiqarilishi maqsadga muvofiq.

16. Amaldagi Jinoyat kodeksining 130 (pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish) va 130<sup>1</sup>-modda (zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish)larida pornografik mahsulotni hamda zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Qayd etish kerakki mazkur jinoyatlar 244<sup>1</sup>-moddada nazarda tutilgan jinoyat bilan predmetiga ko'ra farq qiladi. Jumladan, 244<sup>1</sup>-moddada nazarda tutilgan jinoyat predmeti jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallar bo'lsa, 130 va 130<sup>1</sup>-moddada nazarda tutilgan jinoyat tarkiblari



predmeti pornografik mahsulot hamda zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulot hisoblanadi.

Mazkur jinoyatlar predmetiga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. Lekin, ularning ijtimoiy xavfliligi o‘zaro yaqin. Shundan kelib chiqib, JK 244<sup>1</sup>-moddaning nomida mazkur materiallarni olib kirish va reklama qilganlik uchun ham javobgarlik belgilanganligini aks ettirish maqsadga muvofiq.

O‘z navbatida, yuqorida qayd etilgan jinoyat tarkiblarida qilmishni jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganligining quyidagi belgilari mavjud. Ya‘ni, qilmishni takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlagan holda sodir etilgan bo‘lsa.

Alohida ta‘kidlash kerakki, amaldagi jinoyat qonunining 246-moddasida (kontrabanda) bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib *diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni* O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Biroq, JK 244<sup>1</sup>-moddasi jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi maxsus norma bo‘lganligi sababli ham ushbu materiallarni O‘zbekiston hududiga *olib kirganlik* uchun 244<sup>1</sup>-moddada javobgarlik belgilanishi mantiqan to‘g‘ri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilganlarni inobatga olib, JK 244<sup>1</sup>-moddasini yangi tahrirda qabul qilish maqsadga muvofiq.

### **III. Sud-tergov amaliyotini yaxshilash hamda Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishga oid tavsiyalar:**

17. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 20-sonli “O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorini 4<sup>2</sup>-band bilan to‘ldirib, unda o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga undashda ifodalanadigan qilmishlar Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalanib sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga oid tushuntirish berish taklif etilgan.

18. Jinoyat kodeksining 130-moddasining birinchi qismi dispozitsiyasini “yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish” degan so‘zlardan oldin “saqlash” degan so‘z bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi taklifni qo‘llab-quvvatlab, bunday “saqlash” nafaqat elektron ma‘lumot tashuvchi vositalarda balki, cloud texnologiyalarida saqlangan hollarda ham qilmishni xuddi shu belgi bilan kvalifikatsiya qilish lozim, degan fikrni ilgari surish maqsadga muvofiq.

19. Internet tarmog‘idan foydalanib *cloud* yoki *i-cloud* singari “bulut texnologiyalari” orqali diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da‘vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tarqatish maqsadida saqlaganlik uchun qilmish JK 244<sup>1</sup>-moddasining

birinchi qismi bilan javobgarlik keltirib chiqaradimi yoki uchinchi qismi “g” bandi (Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa) bilanmi? Mazkur holatda qilmish JK 244<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismi bilan javobgarlik keltirib chiqarishi kerak. Negaki, javobgarlikka sazovor bo‘lgan “saqlash”da ifodalanadigan qilmish ham bunday mazmundagi materiallarni saqlash sifatida baholanishi lozim.

20. Telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali shaxsiy xabar shaklida bir profildan boshqasiga aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan materiallarni yuborish qilmishni Internet tarmog‘i orqali sodir etilgan degan og‘irlashtiruvchi belgi bilan kvalifikatsiya qilishga sabab bo‘lmaydi.

21. Yo‘l-transport hodisalari faqatgina yo‘lda harakatlanish bilan bog‘liq bo‘lmasdan, sun‘iy intellekt ishtirokidagi ishlab chiqarish jarayonlaridagi kamchilik (defekt) bilan ham bog‘liq. Shu jihatdan ham transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi 10-sonli “Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bilan bog‘liq ishlar yuzasidan sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorida ayni shu jihatlar yuzasidan ham tushuntirish berilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi.

22. Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning ayrim o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

*Birinchidan*, Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarining latentlik darajasi ancha yuqori. Ularning aksariyat qismi fuqarolar va mansabdor shaxslarning arizalariga ko‘ra aniqlanadi. Masalan, jinoyat qurboni, odatda o‘z mavqei, obro‘-e‘tiborini saqlab qolish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmaydi.

*Ikkinchidan*, Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar natijasida jamiyatga va uning unsurlariga juda katta miqdorda iqtisodiy va moddiy zarar yetkaziladi.

**23. Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatning oldini olishning umumijtimoiy choralari.** Ushbu jinoyatlarning oldini olishda umumijtimoiy darajadagi choralar tizimi asosiy o‘rin tutadi: iqtisodiyotning barqarorlashuvi, ishlab chiqarishning o‘sishi, aholining ish bilan bandligini ta‘minlash, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatni ta‘minlash, aholi ma‘naviy qarashlarini mustahkamlash. Iqtisodiyotni barqarorlashtirmay, uning samaradorligini oshirmay, ishsizlik darajasini hamda ishsizlar sonini kamaytirmay, aholi ma‘lum toifa qatlamlari ijtimoiy himoyasini kuchaytirmay, jamiyatda axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarni mustahkamlamay turib bu boradagi vaziyatni tubdan yaxshilashning imkoni yo‘q.

**24. Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatning oldini olishning maxsus choralari.** Internet tarmog‘idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish amaldagi tizimida jiddiy bo‘shliq mavjud – voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsini o‘rganishga lozim darajada e‘tibor berilmaydi. Internet global kompyuter tarmog‘i paydo bo‘lishi bilan voyaga yetmagan huquqbuzarlar keng imkoniyatlarni qo‘lga kiritdilar, shu sababli o‘smirlar o‘rtasida g‘ayriqonuniy faoliyatning oldini olishga alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

25. Internet tarmog'idan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur hodisaga qarshi kurashish tizimini hosil qiladigan jinoyatlarning maxsus oldini olish choralarining uch asosiy guruhini farqlash mumkin:

a) huquqiy choralar – Internet tarmog'i orqali sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish huquqiy choralari guruhiga eng avvalo qonun hujjatlarining bu turdagi g'ayriqonuniy qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydigan normalarni takomillashtirish;

b) tashkiliy-boshqaruv choralari – 1) haqorat va tuhmatga oid kontentni avtomatik aniqlash va o'chirish bo'yicha algoritmlar va shikoyat qilish mexanizmlarini kuchaytirish; 2) ruhiy tushkunlik yoki bosimga uchragan shaxslarga bepul psixologik yordam ko'rsatish xizmatlarini kengaytirish. Masalan, ishonch telefonlari va onlayn maslahat markazlarini tashkil etish; 3) Internet tarmog'i foydalanuvchilari uchun tizimga kirishda majburiy tanishiladigan kibergigiyena qoidalarini o'rnatish va boshqalar.

v) texnik choralar – 1) Internetda jinoiy javobgarlikka sazovor qonunga xilof kontentni aniqlaydigan sun'iy intellekt texnologik vositalarini joriy etish; 2) ijtimoiy tarmoqlar, forumlar va boshqa platformalarda o'zini o'zi o'ldirishga undovchi kontentni aniqlash va bloklash bo'yicha maxsus mexanizmlar ishlab chiqish; 3) Facebook, YouTube, Telegram va boshqa global platformalar bilan hamkorlik o'rnatish va diniy ekstremistik materiallarni tarqatayotgan akkauntlarni bloklash mexanizmlarini yo'lga qo'yish; 4) Internetda ekstremistik materiallarni tarqatayotgan veb-saytlar, ijtimoiy tarmoq profillari va messenjerlarni avtomatik tarzda aniqlash va bloklash uchun sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish; 5) ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish; 6) o'zini-o'zi o'ldirishga undash holatlari bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga anonim murojaat qilish imkoniyatini yaratish; 7) o'z joniga qasd qilish holatlari va ularning sabablari haqida ijtimoiy reklamalar yaratish, odamlarni ruhiy bosimdan chiqish yo'llari bilan tanishtirish; 8) mazkur jinoyatlar va ularning oqibatlariga doir ko'rsatuvlar tayyorlash va OAVlarida muntazam ko'rsatib borish.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ТУРАЕВ САРДОР АБДИХАКИМ УГЛИ**

**УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ И КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ  
ОТДЕЛЬНЫХ ВИДОВ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШАЕМЫХ С  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СЕТИ ИНТЕРНЕТ**

12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право  
12.00.15 – Криминология (юридические науки)

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии по юридическим наукам (PhD)**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за № B2024.2.PhD/Yu1481.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Аннотация диссертации размещена на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash](http://www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash)) и Информационно-образовательном Портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Очилов Хасан Рашидович**

доктор философии по юридическим наукам (PhD),  
доцент

**Официальные оппоненты:**

**Рустам Кабулов**

доктор юридических наук, профессор

**Фарход Тахиров**

доктор юридических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Институт переподготовки и повышения  
квалификации юридических кадров при  
Министерстве юстиции Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится 24 апреля 2025 года в 16:00 на заседании разового Научного совета DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г.Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: +99871 233-66-36; факс: +99871 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

С диссертацией (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за №-1388) (Адрес: 100047, г.Ташкент, ул. А.Темура, 13. Тел.: +99871 233-66-36).

Аннотация диссертации разослана 9 апреля 2025 года.

(протокол реестра №47 от 9 апреля 2025 года).

**А.А. Отажонов**

Председатель разового научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
юридических наук (DSc), профессор

**М.К. Уразалиев**

Ученый секретарь разового научного совета  
по присуждению ученых степеней, доктор  
юридических наук (DSc), профессор

**Н.С. Салаев**

Председатель Начного семинара при  
разовом научном совете Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
юридических наук (DSc), профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире в условиях четвертой промышленной революции, превращающей научно-фантастические представления в реальность, особое внимание уделяется духовным и нравственным аспектам использования Интернета. В результате использования с всемирной информационной сети Интернет в преступных целях киберпреступность приобретает все более опасный характер, при этом ежедневно совершается более 200 тысяч преступлений, в результате чего физическим и юридическим лицам наносится имущественный ущерб на сумму около 500 млрд. Согласно исследованию, проведенному Juniper Research в 2024 году, к 2025 году ущерб от компьютерной преступности может превысить 2,1 трлн долларов, что свидетельствует об актуальности борьбы с этими преступлениями на международном уровне. Развитие искусственного интеллекта (ИИ) также вызывает необходимость пересмотра правовых систем<sup>1</sup>. Кроме того, возрастающая динамика преступлений против нравственности и неприкосновенности персональных данных в Даркнете, в частности преступлений, связанных с детской порнографией (Child Sexual Abuse Materials), перемещение социальных отношений в виртуальную среду, рост динамики преступлений, совершаемых с использованием Интернета, особенно преступлений против жизни, нравственности и общественной безопасности, повышение уровня их общественной опасности еще больше усиливают необходимость проведения исследований в этой области<sup>2</sup>.

В мире в «Век глобальной информатизации и компьютеризации», наряду с эпохальными изобретениями в жизни человечества, особую важность приобретает выявление уголовно-правовых и криминологических аспектов преступных посягательств на жизнь, нравственность и общественную безопасность, угрожающих информационной безопасности, установление уголовной ответственности за их совершение, анализ состояния и динамики этих преступлений, изучение причин и условий данного вида преступности, личности преступника, а также разработка предложений по их предупреждению.

В нашей республике в Конституции Республики Узбекистан, принятой в новой редакции, также гарантировано, что государство создаст условия для обеспечения доступа к всемирной информационной сети Интернет<sup>3</sup>. Кроме того, в Стратегии развития Нового Узбекистана обеспечение информационной безопасности и совершенствование системы защиты информации, своевременное и адекватное противодействие угрозам в информационной сфере, обеспечение безопасности, межнационального согласия и религиозной толерантности определены как важные задачи в рамках приоритетного направления глубоко продуманной, взаимовыгодной и

---

<sup>1</sup> Čerka, Paulius, Jurgita Grigienė, Gėrbikytė Sirbikytė. 2015. "Liability for Damages Caused by Artificial Intelligence". Computer Law and Security Review 31: 376–389.

<sup>2</sup> <https://link.springer.com/article/10.1007/s11757-023-00790-8>

<sup>3</sup> Конституция Республики Узбекистан. Национальная база данных законодательства, 01.05.2023 г., № 03/23/837/0241. <https://lex.uz/docs/6445147>

практической внешней политики<sup>1</sup>. Однако право на поиск, получение и распространение информации может быть ограничено в пределах, необходимых для защиты конституционного строя, здоровья населения, общественной морали, прав и свобод других лиц, обеспечения общественной безопасности и общественного порядка, а также предотвращения разглашения государственной тайны или иных охраняемых законом сведений. Можно утверждать, что подобные ограничения применяются в случаях причинения вреда объектам, охраняемым уголовным законодательством, с использованием сети Интернет.

